

TABIY FANLARNI O'QITISH MOBAYNIDA IJODIY TASAVVURDAN IJODIY MAHSULOT YARATISHGA O'TISH MEXANIZMLARI**Bekchanova Nilufar Boltaboyevna**

Urganch davlat universiteti, tayanch doktoranti

bekchanova.nilufar88@gmail.comdoi.org/10.59470/202424

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda ijodiy tasavvurdan ijodiy mahsulot yaratishga o'tishning didaktik asoslari tahliliy bayon etilgan. Unda tabiiy fanlar ta'limi jarayoniga ijodiy yondashuv masalalariga urg'u berilgan. Ijodiy qobiliyatlarni bosqichma-bosqich shakllantirib borishda ta'lim muhitining ta'siri asoslangan.

Аннотация: В данной статье аналитически раскрыты дидактические основы перехода от творческого воображения к созданию творческих продуктов в преподавании естественных наук. Акцентируются вопросы творческого подхода к процессу естественнонаучного образования. Влияние образовательной среды основано на постепенном формировании творческих способностей.

Abstract: This article analytically describes the didactic foundations of the transition from creative imagination to creation of creative products in the teaching of natural sciences. It emphasizes the issues of creative approach to the process of natural science education. The influence of the educational environment is based on the gradual formation of creative abilities.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, tasavvur, o'quv-ijodiy faoliyat, iste'dod, tabiiy materiallar, ekologik omillar, agglyutinatsiya, fitozoopark.

Ключевые слова: творческое мышление, воображение, учебно-творческая деятельность, талант, природные материалы, факторы внешней среды, агглютинация, фитозоопарк.

Keywords: creative thinking, imagination, educational and creative activity, talent, natural materials, environmental factors, agglutination, phytozoopark.

Ijodkorlik doimo haqiqiy betakror mahsulotni o'z ichiga oladi. Tasavvurlar mutlaqo yangi bo'lsa-da, lekin ular so'z bilan ifodalanmaguncha, qog'ozga tushirilmaguncha, badiiy asarda yetkazilmaguncha yoki ixtiroda aks ettirilmaguncha, haqiqiy ko'rinishga aylantirilmaguncha ijod deb bo'lmaydi.

Ijodkorlikni rivojlantirish uchun ta'lim oluvchining qobiliyatiga e'tiborni kuchaytirish, ham jamoada, ham oilada iste'dod tashkiliy prinsipga aylanadigan sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Bir tomondan, ta'lim oluvchiga e'tibor berilishi, boshqa tomondan, unga turli xil nomuvofiq talablar qo'yilishi, xatti-harakatlarning tashqi nazorati, oilaning ijodiy a'zolarining bo'lishi va ular tomonidan stereotip bo'lmagan xatti-harakatlarni

ragʻbatlantirilishi mavjud boʻlgan oilaviy muhit taʼlim oluvchida ijodkorlikning rivojlanishiga olib keladi.

Bundan tashqari ijodkorlikning rivojlanishi uchun yetarlicha muhit boʻlishi talab etiladi. Boshlangʻich sinflarga tabiiy fanlarni oʻqitishda ijodiy faoliyatni tashkil etishning keng va oʻziga xos imkoniyatlari mavjud. Muhitni tashkil etishda materiallarning xilma-xilligiga eʼtibor berish, guruhdagi uskunalar, inventarizatsiyalarning (urugʻlar, tabiiy toshlar, oʻtlar, barglar, ildiz, turli shakldagi shoxlar, qush patlari) yetarli boʻlishi muhim oʻrin tutadi. Ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uning eng muhim elementlaridan boʻlgan ijodiy tasavvurni shakllantirishdan boshlanadi.

Muhitning tez oʻzgartirib turilishi ham ijodiy faoliyatga turtki boʻlishi mumkin. Muhitni oʻzgartirish deganda, mavzu mazmuniga qarab vaziyatlarni, shu jumladan taʼlim oluvchilarning qiziqishlari va imkoniyatlariga qarab faoliyat turlarini oʻzgarish nazarda tutiladi.

Materiallarning koʻp funksionalligidan ijodiy foydalanish turli xil tabiiy materiallardan, jismlardan (toshlar, oʻtlar, barglar, novda, ildizlar, chigʻanoqlar, muz parchalari, togʻ, yulduz, bulut rasmlari) turlicha koʻrinishda, turli yoʻnalishda, turli maqsadda foydalanishni oʻz ichiga oladi. Taʼlim oluvchilarning ijodiy mahsulotlaridan ijodiy burchak tashkil etish maqsadga muvofiq.



1-rasm. Barglardan tayyorlangan qushlarning tasvirlari.

Tabiiy fanlar taʼlimi mobaynida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslangan kompozitsion darslar, turli xil ijodiy topshiriqlarni qamrab oluvchi metodik tizim ishlab chiqildi. Bu maqsadda samarali taʼsir koʻrsatuvchi metodlardan biri kombinatsiya (birlashtirish) yoki agglyutinatsiya metodi hisoblanadi. Kombinatsiya obyektlarning bir-biriga oʻzaro oʻxshamagan tomonlari, belgilari toʻplamini anglatadi. Mana

shu agglyutinatsiya metodi yordamida takomillashtirilgan obrazlar, afsonaviy personajlar, turli ertak qahramonlari yaratilgan (suv parisi, kentavr, yakka shox). Bu metoddan tabiiy fanlarni o'qitish mobaynida qiziqarli, ijodiy topshiriqlarni tashkil etishda samarali foydalanish mumkin.

O'simliklar dunyosi, hayvonot dunyosi, ekologik omillar mavzulari mazmuniga mos ravishda fitozooparklar haqida tushuncha berish, shunday joylarga sayohat uyushtirish, ularning fotoalbomlarini tayyorlash, sodda ko'rinishlarini o'z qo'llari bilan amalga oshirish talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga, ularda tabiatga bo'lgan samimiy ijobiy munosabatni rivojlantirishga yordam beradi.



2-rasm. Fitozooparklar.

Ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi mavzu mazmuniga bog'liq ijodiy mashqlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Tabiiy fanlarni o'qitish mobaynida mavzu mazmuniga mos keluvchi quyidagi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

1) Ko'zingizni yuming. Sayyoralaridan biri haqida o'ylang. Ko'zingizni ochmasdan turib, imkon qadar u haqida ko'proq ma'lumotlarni ayting. Ko'zingizni ochib, eslab qolgan ma'lumotlarni yozing.

2) Tabiat manzarasi haqidagi biror she'rni eslang, uning bir qatoridan foydalanib, ikkinchi misrasini o'zingiz tuzishga harakat qiling.

3) Atrofingizdagi olamga diqqat qiling. Atrofingizdagi tabiat manzarasini ta'riflash uchun 400 ta so'zdan foydalaning.

4) Agar imkoniyat bo'lganda, men atrofda ... o'zgarishlar qilardim. Nuqtalar o'rniga kamida 50 ta so'z qo'yib, hikoyani to'ldiring.

- 5) Yashil do'stlar mavzuida hikoya yozing.
 - 6) Atmosfera havosini buzilishiga 10 ta sabab ko'rsating.
 - 7) "Bug'doydan nongacha" mavzusida rasmi hikoya tayyorlang.
 - 8) Suvni asrash uchun 10 ta sabab sanang.
 - 9) O'zingizga tanish bo'lgan 10 ta yovvoyi o't, 10 ta madaniy o't, 10 ta yovvoyi daraxt, 10 ta madaniy darax, 10 ta yovvoyi hayvon, 10 ta uy hayvoni, 10 ta qush nomini yozing.
 - 10) Ko'rinishi, materiali jihatidan farq qiluvchi 5 xil qo'lbola qush uyasini rasmini chizing.
 - 11) O'rmonda yolg'iz kesilmay qolgan daraxt nomidan monolog yozing.
 - 12) "Suv tomchisining sayohati" mavzusida hikoya yozing.
- Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi fani o'quv dasturini o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish nuqtai nazaridan tahlil qilgan holda, ushbu mazmun asosida o'quvchilarning sinchkovlik, ijodiy tasavvur, kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik tizim ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Allaberdiyeva K.X. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishning neyropedagogik imkoniyatlari: Avtoref. dis. ... ped. fan. falsafa doktori (PhD). –T.: 2023. -50 b.
2. Suvanova K.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tasviriy san'at namunalari asosida ijodkorlikni shakllantirish: Avtoref. dis. ... ped. fan. falsafa doktori (PhD). – Samarqand: 2023. -21 b.
3. Альтшуллер, Г.С. Крылья для Икара: Как решать изобретательские задачи / Г.С. Альтшуллер, А.Б. Селюцкий. Петрозаводск: Карелия,1980.-224 с.
4. Антонов, А.В. Психология изобретательского творчества / А.В. Антонов. Киев: Вища школа, 1978. - 175 с
5. Боно Э. Учите вашего ребенка мыслить / Э. Боно. Минск: ООО «Попурри», 1998. - 336 с.
6. Орлова, С.Н. Психологические факторы развития творческого мышления личности в процессе когнитивной деятельности: дис. . д-ра пед. наук / С.Н. Орлова. Новосибирск, 2002. - 328 с.
7. Козлов, А.С. Педагогические условия использования современных методов творчества как средства подготовки учителя технологии: дис. . канд. пед. наук / А.С. Козлов. Новосибирск: Изд. НГПУ, 2002. - 256 с.
8. Иванов, Г.И. Формулы творчества, или как научиться изобретать: кн. для учащихся ст. классов / Г.И. Иванов. М.: Просвещение, 1994. - 207 с.
9. Гурова, Л.Л. Психологический анализ решения задач / Л.Л. Гурова. - Воронеж, 1976.-372 с.